

## CHARLES DIKKENSNING BOLALIKDAGI QIYINCHILIKLARI VA UNING ASARLARI HAQIDA

*Xudayarova Hilola Nu'mon qizi*

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi*

*Telefon raqam: +998(94)0891500*

*[xudayarovahilola1@gmail.com](mailto:xudayarovahilola1@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Kenjayeva Mukhlisa Bakxadirovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Charles Dikkensning mashaqqatli hayoti, asarlarining yaratilishi va o‘zi yashagan davrdagi qiyinchiliklarni asarlarida hajviy yo‘l bilan bayon etgani haqida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy faoliyat, mehnatkash xalq, tanqidiy realizm, hajv, ijtimoiy ziddiyatlar, moliyaviy muammolar, teatr san‘ati, nashriyot, piyesalar to‘plami, qirolicha Viktoriya, poyezd halokati, hayotiy lavhalar, asar bosh mavzusi.

Charles Dickens 1812-yilda Angliyada tug‘ilgan. Uning otasi, John Dickens, dengiz flotida yordamchi vazifasini bajargan. U o‘z o‘g‘liga juda yaxshi ota bo‘lgan. Onasi esa Elizabeth Dickens ismli aqli va mehribon ayol edi. Otasi John Dickens Kristofor Huffam deb nomlangan kemaning egasiga aylangach, otasi Charles Dickensga "Dombi va o‘g‘li" asaridagi kemalar kompaniyasining boshlig‘i Paul Dombey obrazi uchun ilhom bag‘ishladi. Charles Dickens bolalik paytlaridanoq kitoblarga juda qiziqar va qo‘liga tushgan har bir kitobni o‘qib chiqar edi. Bular orasiga Tobias Smolletning bir insonning sarguzashtlari yoritilgan romanlari, shuningdek, Genri Field, Robinzon Kruzo va ming bir kecha asarlarini ham kiradi. Uning 12 yoshida u uchun qiyin davr boshlanadi. Chunki Charles 12 yosh bo‘lganida uning otasi qamoqqa olinadi. Bundan so‘ng Charles ularning oilaviy do’sti bo‘lgan kambag‘al keksa ayol bilan birga yashashga majbur bo‘ldi. Bu keksa ayol yosh Dickensni "Dombey va o‘g‘li" asaridagi Ms Pipchin obrazi uchun ilhomlantirdi. Biroz vaqt o‘tgandan so‘ng u yana boshqa uyga ko‘chishga majbur bo‘ldi. Va bir mehribon, ajoyib tabiatli Archibald Russel ismli sud agentligi vakilining uyida uning keksa ayoli va nogiron o‘g‘li bilan birga yashaydi. Uning oqsoq o‘g‘li keyinchalik "The Old Curiosity Shop" (Eski qiziqish do‘koni) asaridagi Garlands obrazini yaratishda Dickensni ilhomlantirdi. O’sha paytda Charles ko‘pgina dam olish kunlarida otasining oldiga, ya’ni "Marshalsea" qamoqxonasiga borar edi. Bu tashriflar ham uning keyingi ishlariga ta’sir qilgan edi. Qamoqxonada turli xil harakterdagi insonlarni uchratdi va ulardan keljakda o‘z asarlarini yaratishda foydalandi. Bir necha oyldan so‘ng Charles maktabni tashlashga va ishlab chiqaruvchi omborxonalarda kuniga o‘n soatlab ishslashga majbur bo‘ldi. Chunki u o‘z oilasini boqishi kerak edi. Uch yildan so‘ng otasi

qamoqdan ozod etiladi va Charles "Wellington House Academy" deb nomlangan maktabda o'qishini davom ettiradi. Bu maktab keyinchalik "David Copperfield" asaridagi Mister Kraklesning tashkiloti uchun uni ilhomlantirgan. Maktabni bitirgach gazetaga ishga kiradi va o'sha vaqlarda bo'lajak turmush o'rtog'i Ketrinni uchratadi va 1836-yilning aprel oyida turmush qurishadi. Dikkens uylangan vaqtida muvaffaqiyatlari journalist va taniqli adib sifatida dong tarqatgandi. U ko'p ishslash barobarida juda katta pul ham topardi. Hayotlari juda shirin edi. Bundan ortig'ini Dikkens o'shanda orzu ham qilmagan edi. Ketrin o'z erini sidqidildan sevar va e'zozlar edi. Dikkens xotiniga nozik munosabatda bo'lar edi. To'y arafasi Ketricha shunday yozgan "Sen bilan hali oldimizda juda uzoq yo'llar turibdi. Men nimaiki qilsam, nimagaki intilsam, hammasi sen uchun bo'ladi. Hammasi xushbaxtliging va saodating uchun. Sen bunga arziysan!"<sup>1</sup> Serqirra iqtidori va qunt bilan ter to'kib qilgan mehnatlari tufayli Charles juda katta obro' yig'gan, yozuvchilikdan keladigan daromadi ham anchagina oshgan edi. Bolalik paytlarida har doim Angliyadagi bir uyning yonidan o'tganida uning ichida yashashni orzu qilar edi. Yetarlicha mablag'ga ega bo'lgach, "Gads Hill" deb atalgan o'sha qasrni sotib oldi va oilasi bilan birga shu uyda yashay boshladi. 1870-yilda "Edvin Drud" asari ustida kunlar davomida tinmasdan ishladi va natijada miyaga qon quyilishi kuzatilib, juda qattiq zarba oldi. Xushini yo'qotdi va qaytib xushiga kelmadidi. Ertasi kuni esa vafot etdi. U o'z xohishiga ko'ra "Cathedral" cherkovida dafn qilindi.

Charles Dikkensning adabiy faoliyati haqida: 1833-yilda Charles o'z adabiy faoliyatini boshlagan va birinchi "Mirror of Parliament" deb nomlangan siyosiy gazetada journalist sifatida ishlagan. Keyinchalik 1835-yildan "Morning Chronicle" deb nomlangan gazetada ishladi. 1836-yilda u o'zi yozgan piyesalarini "Sketches by Boz" deb nomlangan kitobda jamlab, nashr qildirdi. "Sketches by Boz" asari katta muvaffaqiyat qozondi va Charles Dikkens o'z ijtimoiy va ilmiy hayotida yanada mashhurlikka erishdi.

O'sha paytdagi nashriyotchilar: Chapman va Hall Robert Seymourning chala qolgan illustratsiyasi uchun to'liq matn yozib berishini iltimos qildi. Bu Hikoya keyinchalik Pikvik klubi yozishmalari deb nomlandi va juda mashhur bo'lib ketdi. Charles Dikkens 1836-yildan 1837-yilgacha "The adventures of Oliver Twist" (Oliver Twisting sarguzashtlari) asarini yozib tugatgan. Bu roman "Bently's Miscellany" jurnalida bosib chiqarildi. Bu asar Dikkensi muvaffaqiyatlari roman yozuvchisi sifatida mashhur qildi. Hattoki, qirolicha Viktoriya ham uning kuchli muhlisiga aylandi. Uning muhlisi sifatida "Oliver Twisting sarguzashtlari" romanini ham, Pikvik klubi yozishmalarini ham zo'r qiziqish bilan o'qib chiqadi. Charles Dikkens asarlarining bosh mavzusi oddiy mehnatkash xalqning og'ir ahvoli bo'lgan. Shuning uchun ham, Dikkens tanqidiy realizm uslubining asoschilaridan biri hisoblanadi. Charles Dikkens 1838-1843-yillarda juda ko'p asarlarni yozib tugatdi. Bular "Nicholas

Nickleby"(Nikolas Niklbi), "The Old Curiosity Shop"(Eski qiziqish do'koni), "Barnaby Rudge: a tale of riots of Eighty"(Barnabi Rudj: Saksonlarning G'aleyonlari haqida ertak) jurnalning "Usta Xamfrining soati" qismida chop etilgan romani va "Christmas Carol"(Rojdestvo qo'shig'i) asarlari edi. Va bu asarlar Dikkensni butun dunyoga mashhur qildi. 19-asrning 40-50-yillari Dikkens ijodi gullagan davr bo'ldi. 1844-yilda "Martin Chuzlewit" romanini yozib tugatdi. Bu romanda Amerika voqeligidagi salbiy tomonlar tasvirlangan edi. "Domby and son"(Dombi va o'g'li) romanida insonlik qiyofasini yo'qotgan, manmansiragan ingliz boyvachchalari hajv tig'i ostiga olingan. 1849-yilning boshlarida u o'zining eng sevimli asarlaridan biri "David Copperfield" asarini yozishni boshlagan. Bu roman tarjimayi hol yo'sinida yozilgan edi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, uning asarlaridagi juda ko'p qahramonlar, voqealar o'zining hayotidan olingan va o'zining hayotiy tajribalarini asaridagi obrazlarda tasvirlab bergen. Dikkens asarlarida umuman oddiy kishilar qiyofasi zo'r mahorat bilan aks etadi. 1848-yillarda Angliyada Chartistlar(yo'qsullar) harakati mag'lubiyatga uchragan davrda Dikkens dolzarb ijtimoiy muammolarni qalamga oldi va o'zining "Bleak House"(Sovuq uy), "Hard Time"(Mashaqqatli zamон) va "Little Dorrit"(Jajji Dorrit) asarlarini yozib tugatdi. Va bu asarlarning barchasi odamlar orasida juda mashhur bo'lib ketdi. Ayniqsa,"Mashaqqatli zamон" romani alohida ahamiyatga ega. O'sha vaqtarda ham Charles doim teatrga qiziqardi va xalq orasidagi jiddiy muammolarni sahna ko'rinishi orqali namoyish etardi. Bu uchun o'zining bor vaqt,kuchi va pulini sarflashdan ham toymas edi. 1859-yildan 1861-yilga qadar o'zining juda katta muvaffaqiyatga erishgan asarlarini yozdi va jurnallarda nashr ettirdi. Bu asarlar: "A tale of two cities"(Ikki shaharcha to'g'risida qissa), "Great Expectations"(Intizorlik) romanlari edi. Bu romanlarda Dikkens jamiyatni ijtimoiy inqirozdan olib chiqish yo'llarini badiiy vositalar yordamida tasvirlaydi. 1865-yilda bo'lgan poyezd halokati voqeasidagi hissiyotlaridan foydalanib o'zining ruhlar haqidagi "The Signal Man"(Bizning umumiy do'stimiz) asarini yozgan edi. 1870-yilda Dikkens o'zining so'nggi asari "Edwin Drood"(Edvin Drud) ni yaratdi va ommaga taqdim qildi.

Xulosa: Charles Dikkens hayoti davomida turli xil hayot qiyinchiliklariga duch kelishiga qaramasdan bor mehri va zehnini yozuvchilikka bag'ishlagan. Va bu mehnatlari o'z samarasini bergen. U oddiy xalqning ham, boy va zodagonlarning ham sevimli yozuvchisiga aylangan edi. Chunki u o'z kasbiga bor umrini bag'ishlagan edi.

#### List of references

1. Deyl Karnegining "Oilada baxtga erishish yo'llari" kitobi asosida Fatxulla Namozov tarjimasi.
2. www.smith.edu.Retrieved
3. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi
4. <https://www.biography.com/authors-writers/langston-hughes-poems>
5. [Buy.stripe.com/8wMalkda559RduUaEE](https://Buy.stripe.com/8wMalkda559RduUaEE)

6. Kenjali, E.R, Abduramanova, D. V. (2021). Важность внедрения инновационных технологий в обучении чтению и письму как один из актуальных методов преподавания иностранного языка в современном мире. Innovative Technologies in Teaching Foreign Languages and Learner Assessment in Online Education, 2(CSPI Conference 2), Uzbekistan, pp. 332-339
7. 9. Akmalxonov S. A. The main problem of learning english as a foreign language //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 573-576.
8. 10. Kenjayeva Muxlisa Baxodir qizi,& Yusupova Shoira Batirovna. (2022). The Comparative Analysis of Adjectives in English and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 117–121. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/417>
9. 11. Kenjayeva, M., & Yusupova, S. (2022). SEMANTIC ROLES AND FEATURES. Models and methods in modern science, 1(17), 60-67.